



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 3-iyun, shanba,  
66 (23.787)-son

**KUN  
HIKMATI**

Tafakkurning  
birinchi ko'rinishi  
- insonda dunyoni  
anglashga hafsala  
va ishtiyoq paydo  
bo'lishi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## YANGI O'ZBEKISTONNING BAKTIYOR BOLALARI

**Bu yilgi bolajonlar bayrami ana shu shior ostida o'tkazildi. 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan viloyatning asosiy bayram tadbirlari Samarqand shahridagi Ali-sher Navoiy va Mustafo Kamol Otaturk ko'chalarida xalq sayli tarzida tashkil etildi. Bayramona bezatilgan bu hududlarda bolalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar ko'rgazmasi, teatrlashtirilgan tomoshalar, konsert dasturi va sport musobaqalari namoyish etildi.**



- Bu yilgi bayram tadbirining avvalgilardan farqli jihatlari ko'p, - deydi viloyat bolalar kutubxonasi rahbari Yusuf Muhammadiyev. - Jumladan, tadbirida kutubxonamiz xodimlari ertak qahramonlari ko'rinishida bolajonlar uchun turli intellektual o'yinlar, viktorinalar, mushoiralar tashkil qildi. Savollarga to'g'ri javob bergan jaiji kitobxonlarimizga sovg'alar ulashildi. Samarqandlik usta-hunarmandlar tomonidan ular uchun mahorat darslari o'tkazildi.

- Bugungi bayram saylida dugonam Charos o'zini rassomlikda sinab ko'rdi, - deydi shahardagi 81-maktab o'quvchisi Dilnura Qoraqulova. - Men esa yumshoq o'yinchoq yasash sirlarini o'rganishga harakat qildim. Sport musobaqalarida qatnashdik. Viloyat qo'g'irchoq teatrida spektakllar bepul namoyish etilayotgani, istirohat bog'idagi arg'imchoqlar bolalar uchun beminat xizmat ko'rsatayotgani bizni xursand qildi.



Bayram tadbirlarida "SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi, oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan o'g'il-qizlar, shuningdek, ehtiyojmand oilalar farzandlarining ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ular uchun kinoteatrlarda qiziqarli filmlar tomosha qilish imkoniyati ham yaratildi.

Shu kuni bolajonlar bayrami munosabati bilan viloyatimizning barcha shahar va tumanlarida, mahallalarda, istirohat bog'larida ko'ngilochar tomoshalar davom etdi.

Zulxumor ASHUROVA.



## SAMARQAND NUFUZLI SPORT MUSOBAQALARIGA MEZBONLIK QILADI

**9-10-11-iyun kunlari Samarqand shahrida triatlon bo'yicha "2023 Asia Triathlon Cup Samarkand" xalqaro musobaqasi va O'zbekiston chempionati bo'lib o'tadi. Ushbu nufuzli sport musobaqasini o'tkazishga tayyorgarlik qanday? Unda necha davlatdan qancha sportchi qatnashadi? Musobaqa va chempionatni har tomonlama sifatli o'tkazish uchun imkoniyatlarimiz qanday? Xavfsizlik holatichi?**

Viloyat Matbuot uyida viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov va boshqa mutasaddilar ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida shu kabi savollarga javob izlandi.

- Sportning triatlon turi o'ta murakkab va bunday musobaqani har qanday davlat ham o'tkaza olmaydi, - deydi R.Qobilov. - Samarqand shahrida esa triatlon xalqaro musobaqasini o'tkazish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar bor. Muhimi, hududimizda xalqaro suzish talablariga javob beruvchi eshkak eshish kanali mavjud. Shu bois 9-iyun kuni O'zbekiston tarixida ilk bor "Para-triatlon bo'yicha Samarqand – 2023 Osiyo chempionati" bo'lib o'tadi. Unda dunyo davlatlaridan 80 nafar para-sportchi ishtirok etishi rejalashtirilgan. Para-sportchilar sprint

masofasida (750 metr suzish, 20 kilometr velosipedda harakatlanish, 5 kilometr yugurish) o'zaro raqobatlashadi.

10-iyun kuni "Samarqand – 2023 Osiyo triatlon kubogi" bo'lib o'tadi. Unda dunyoning eng yaxshi 50 nafar ayol va 50 nafar erkak sportchilari ishtirok etadi. Shu kuni Osiyo kubogi doirasida Markaziy Osiyo sportchilari o'rtasida (CATA – Central Asia triathlon Association) alohida musobaqa va taqdirlash marosimi bo'lib o'tadi.

11-iyun kuni "Samarqand – 2023, triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati" bo'lib o'tadi. Unda standart va super sprint masofalarida elite, U23, 15-17 yoshlar va 16-19 yoshli o'smirlar o'rtasida triatlon bo'yicha milliy va yoshlar terma jamoasiga saralash o'tkaziladi. Shuningdek,

shu kuni shaxsiy va jamoaviy musobaqalarda professionallar toifasiga kirmagan 300 nafar havaskor triatlonchilar ishtirok etadi. Ushbu musobaqa ikki masofada o'tkaziladi: olimpiya (1500 metr suzish, 40 kilometr velosipedda harakatlanish, 10 kilometr yugurish) va super-sprint (350 metr suzish, 13 kilometr velosipedda harakatlanish, 3 kilometr yugurish).

Musobaqaning asosiy qismi Samarqand eshkak eshish kanali hududi - "Buyuk ipak yo'li" xalqaro sayyohlik majmuasida bo'lib o'tadi. Ammo triatlonning velosipedda harakatlanish qismi Samarqand shahri bo'yab o'tkaziladi. Buning uchun shahar va unga tutash Samarqand tumani hududidagi yo'llar vaqti-vaqti bilan yopiladi. Sportchilar va tomoshabinlarning xavfsizligini ta'minlash uchun ichki ishlar organlari, milliy gvardiya xodimlari hamda ko'ngilli volontyorlar xizmatidan foydalaniladi.

Matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari xodimlari savollariga atroflicha javob berildi.

Akram BO'RIYEV.

### INDALLOSINI AYTGANDA...

**Narzulla JO'RAYEV,**  
siyosiy fanlar doktori, professor:

- Dunyo o'zgarayotgan, insoniyat turmush tarzi va ruhiyatida keskin tebranishlar yuz berayotgan bir paytda g'oyaviy chiniqqan, sadoqatli, millat va Vatan qayg'usi bilan yashaydigan avlodga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.



### "Temurbeklar maktabi"ga o'qishga kiritib qo'yishni va'da qilgan mansabdor qo'lga olindi

Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimlari hamkorlikda Past Darg'om tumanida tezkor tadbir o'tkazdi.



Boshqarmaga tushgan ariza asosida o'tkazilgan tadbirida tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i o'rinbosari X.U. Mudofaa vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi"ga mahalliy fuqaroni o'qishga kirish imtihonlarining birlamchi bosqichidan muammosiz o'tishini va'da qilib, oldindan kelishilgan 1500000 so'm pulni olayotgan vaqtda qo'lga olindi.

Holat yuzasidan X.U.ga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, surishtiruv harakatlari olib borilmoqda.

## SAYLOV BO'YICHA O'QITADIGANLAR O'QITILDI

**Samarqand shahrida muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha hududiy trenerlar uchun saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir o'quv-amaliy mashg'ulotlar bo'lib o'tdi.**

Mashg'ulotlarda hududiy trenerlarning bilim va malakasini oshirish, ularga o'quv-uslubiy materiallar yetkazish hamda professional jihatdan yanada rivojlantirish maqsad qilingan.

Unda avvalgi saylovlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning oldini olish bo'yicha vazifalar tushuntirildi.

Shuningdek, treninglar davomida muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarini tuzish tartibi va faoliyatining asosiy jihatlari, saylovda ovoz beruvchi fuqarolarning ro'yxati bilan ishlash,



muddatidan oldin ovoz berishni tashkil etish va o'tkazish, saylov uchastkasida amaliy mashg'ulot va mavjud tajribani o'rgatish, saylov o'tkazuvchi uchastka komissiyasining ovoz berish kunidagi faoliyati kabi muhim masalalar ko'rib chiqildi.

- Mazkur o'quv-seminarlar Markaziy saylov komissiyasi konsepsiyasi asosida katta tajribaga ega malakali ekspertlar tomonidan o'tkazilmoqda, - deydi Toshkent davlat yuridik universiteti professori Olim Narzullayev. - Ikki kun davomida hududiy trenerlarni saylovga oid huquqiy asoslar bilan tanishtirdik, video materiallar bilan ta'minladik. Ikkinchi bosqichda mazkur trenerlar hududlardagi uchastka saylov komissiyasi raisi, rais o'rinbosari va kotibini o'qitadi. Uchinchi bosqichda esa a'zolarni o'qitadi.

**7-Samarqand okrug saylov komissiyasi matbuot markazi.**



# QARDOSH ELLAR OLIMLARI MUSHTARAK MAQSADLAR YO'LIDA

**Samarqandda yana bir nufuzli anjuman – Turkiy davlatlari tashkilotining Turkiy universitetlar ittifoqining navbatdagi yig'ini o'tkaziladi. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida o'tkaziladigan xalqaro tadbir Turkiya va boshqa turkiy davlatlar yetakchi universitetlari vakillarini har tomonlama fikr almashinuvlar asosida va oliy ta'lim sohasida hamkorlik qilish yo'llarini izlash uchun birlashtiradi.**

Ta'kidlash lozimki, 2009-yilning 3-oktabr sanasida Naxichevan bitimiga muvofiq, asosiy maqsadi mamlakatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'lgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi tuzilgan.

O'zbekiston mazkur kengashga 2019-yilning sentabr oyida rasman a'zo bo'lgan.

2021-yilda Istanbul sammitida Kengash tarixida yangi sahifa ochildi — u "Turkiy davlatlar tashkiloti" deb qayta nomlandi.

Bu paytda nafaqat tashkilot nomi o'zgaradi, balki mazmun jihatdan ham yangilanishlar kuzatildi. Turkiy dunyo nigohi deb nomlangan, 2040-yilga mo'ljallangan strategik hujjat qabul qilingani va qo'yilgan maqsadlar to'rt sohaga oid, aniq-ravshan belgilanganining yaqqol isbotidir. Xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va xalqaro hamjamiyat bilan turkiy davlatlarning aloqalari shular jumlasidan.

Konsepsiyada ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish, turkiy tilli universitetlar ittifoqi hamkorligini yetakchi mexanizmga aylantirish, olimlar, tadqiqotchilar va talabalar ixtiyorida bo'lgan ilmiy maqolalar manbalarini va a'zo davlatlar ilmiy jurnallari uchun umumiy xalqaro indeksni yaratish ko'zda tutilgan ham ahamiyatli.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil Samarqanddagi Turkiy davlatlar tashkiloti I sammitidagi nutqida 2023-yilda O'zbekistonda turk dunyosi yoshlarining ilm-fan va innovatsiyalar xalqaro kongressini o'tkazish tashabbusini ilgari surgan edi.

Joriy yil avvalida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonovning Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev bilan o'tkazilgan muzokaralarda mazkur tashabbusni hayotga tatbiq etish masalasi ko'rib chiqildi.



Jumladan, turkiy dunyo yoshlarining ilm va innovatsiyalar xalqaro kongressini o'tkazish, shuningdek, talaba-yoshlar uchun turkiy davlatlar o'rtasida stipendiya dasturlarini ko'paytirish bo'yicha fikr almashildi. Turkiy davlatlar o'rtasida umumiy madaniyat, til va tarixni saqlab qolish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirishga kelishib olingan.

Muloqot davomida Turkiy universitetlar ittifoqi yig'ilishining tashkiliy jihatlari ham ko'rildi.

Turkiy tilli universitetlar ittifoqining navbatdagi anjumani "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida o'tkazilishida ham ramziy ma'no bor. Zotan, oliy o'quv yurti ayni tashkilotda berilgan tashabbus doirasida, a'zo davlatlar o'rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Aslida Turkiy tilli universitetlar ittifoqi kengashi 2013-yilda tashkil etilgan. Hozirda ittifoqning Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, O'zbekiston va Vengriyada 40 dan ortiq a'zosi bor. Ittifoqqa O'zbekistondagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Qo'qon dav-

lat universitetlari a'zo hisoblanadi.

Ittifoqning Samarqandda o'tadigan navbatdagi anjumani hamkorlik va do'stlikni mustahkamlash, ta'limni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilmoqda.

Tadbirlarda asosan ittifoqqa a'zo universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, tajriba va bilimlarni almashish hamda qo'shma ta'lim va tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari muhokama qilindi. Bundan tashqari, sessiyada Turk dunyosi universitetlari o'rtasida talabalar almashinuvi tashabbuslari, talabalar uchun amaliyot dasturlarini yaratish va ularga stipendiyalar ajratishning imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Umuman, davlatimiz rahbarining TDTning Samarqandda o'tgan sammitida bildirgan tashabbusini amalga oshirish yaqin istiqbolda quyidagi natijalarga olib keladi:

- yoshlar uchun intellektual platforma yaratiladi, yosh olim va tadqiqotchilar almashinuvi dasturlarini yanada rivojlantiradi;
- o'z ilmiy ishlarida salmoqli natijalarga erishgan olimlar va innovatorlar, ilmiy va ta'lim muassasalari vakillari hamda turli ko'rik-tanlovlarning yosh g'oliblarini birlashtiradi;
- yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot siyosatini olib borish, yosh avlodni ilmiy dasturlar va jarayonlarga jalb qilish borasidagi qarashlarini yaqinlashtiradi;
- yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot va o'quv-anglash faoliyatini rag'batlantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, shuningdek, intellektual salohiyatini rivojlantirishga turtki beradi.

Darvoqe, Turkiy tilli universitetlar ittifoqining Samarqandda o'tadigan anjumanida oliy ta'lim tizimida umumiy ta'lim standartlarini ishlab chiqqan holda yuqori sifatli ta'limni ta'minlashga doir muhim masalalar ham muhokama qilinishi belgilangan.

**Jo'libay ELTAZAROV,**  
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektori, professor.



## HUQUQIY MASLAHAT

**KREDITNI BOSHQA SHAXSGA O'TKAZSA BO'LDIMI? O'zimga ma'qul bo'lgan hududdan uy sotib olmoqchi edim, lekin uying ko'p yillik krediti bor ekan. Uyni o'z nomimga o'tkazib, bank to'lovlarini ham o'zim to'lab borsam bo'lmaydimi?**

**Tolmas TOJIYEV,**  
Samarqand shahri.

Fuqarolik kodeksining 322-moddasiga binoan qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e'tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo'yishga haqli. Agar kafil yoki garovga qo'yuvchi yangi qarzdor uchun javob berishga rozi bo'lmasa, qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov bekor bo'ladi. Demak, bunday holatda kredit bergan bank rozi bo'lsagina, yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish mumkin.

**TILXAT BILAN QARZNI UNDIRSAM BO'LDIMI? Bir tanishimga ko'p miqdorda pul qarz berganman. No'tariusga borishga imkoniyat bo'lmaganligi uchun tanishim o'z vaqtida qaytarib beraman, degan mazmunda tilxat yozib bergan edi. Oradan bir necha yil o'tdi, qaytarmayapti. O'sha tilxat bilan qarzimni undirsam bo'ladimi?**

**Ilhom QUVONDIQOV,**  
Kattaqo'rg'on tumani.

Ha, bo'ladi. Faqat qarzdor bergan tilxat qarz shartnomasining ayrim shartlariga javob berishi kerak. Fuqarolik kodeksining 733-moddasi 3-qismiga ko'ra, agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki ma'lum miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa birorta hujjat mavjud bo'lsa, o'sha vaqtda qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Agar qarz majburiyati qarz oluvchi tomonidan berilgan veksel, obligatsiya yoki qarz summasini va qarz beruvchining uni undirib olish huquqini belgilaydigan boshqa qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan bo'lsa, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

**"MASTER"LIKKA OLIY MA'LUMOTLI BO'LISH SHARTMI? Kasb-hunar kollejida ishlab chiqarish ta'limi ustasi, ya'ni "master" bo'lib o'n yildan ortiq ishlaganman. Endi rahbarimiz oliy ma'lumotli diplomim bo'lishini talab qilyapti. Uning talabi to'g'rimi?**

**Ma'mur XO'JAQULOV,**  
Oqdaryo tumani.

Yo'q. Ayrim shaxslarga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi uchun oliy ma'lumot talab qilinmaydi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan, kollej va texnikumlarda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli.

Zarurat bo'lganda kollej va texnikumlar ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek, tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumotli bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

**BOG'CHA UCHUN KIMLAR TO'LOV QILMAYDI? Uch yoshli farzandimning nutqida va ko'zida nuqsoni bor. Bolalar bog'chasida mendan to'lov qilishimni so'rashmoqda. Qonunlarimizda nuqsoni bor bolalar uchun qanday imtiyozlar bor. Shu haqida ma'lumot bersangiz.**

**Shoira TUGALOVA,**  
Kattaqo'rg'on shahri.

Nutqida (rinolaliya, dududlik, bolalar afaziyasi), eshitishda (II-IV darajali neyrosensor eshitish pastligi va karlik), shuningdek, ko'zi ojizlik, to'r pardaning rivojlanishidagi tug'ma nuqsonlar, ko'rish nervining atrofiyasi, ko'rish nervi disk va makulasining og'ir darajadagi gipoplaziyasi, albinizm, aniridiya, ko'rish o'tkirliigi 0,4 gacha, katarakta, glaukoma kabi og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun bog'chalarda ota-onalaridan to'lov undirilmaydi.

Shuningdek, tayanch-harakat apparati buzilishi skolioz, ko'krak qafasining deformatsiyasi, bolalar tserebral falaj va boshqa nevrologik patologiyalar oqibatida ortopedik deformatsiyalari, osteomyelit asoratlari, tug'ma maymoqlik, ortopedik tizimi kasalliklari, tug'ma son suyag chiqishi, psixik rivojlanishdagi nuqsonlar, aqliy rivojlanishdagi nuqsonlari bo'lgan bolalar ham bu imtiyoz qo'llaniladi.

**HARBIY XIZMATDAN KIMLAR OZOD ETILGAN? Bitta o'g'lim bor, uni harbiy xizmatga chaqirishyapti. Qanday holatlarda fuqaro harbiy xizmatdan ozod qilinishi mumkin? Ilgari yolg'iz o'g'illar chaqirilmadi.**

**Rustam RAJABOV,**  
Qo'shrabot tumani.

2002-yilda qabul qilingan 436-II-son Qonunning 22-moddasiga asosan, tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan quyidagilar ozod etiladi:

- 1) salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan chaqiriluvchilar;
- 2) agar o'zlari harbiy xizmatga rozi bo'lmasa, yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar;
- 3) ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlardan birida diniy rutba egasi bo'lgan chaqiriluvchilar.
- 4) jinoyi javobgarlikka tortilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar.

**Zafar QARSHIYEV,**  
huquqshunos.



## Kattaqo'rg'onlik OSHIN ONA

**Kattaqo'rg'on tumani Qiyot mahallasida yashovchi tadbirkor ayol Xayriniso Boboqulovani hech kim o'z ismi bilan chaqirmaydi. Chunki opa "Oshin ona" nomi bilan elga tanilgan.**

- Meni bundan 10-15 yillar ilgari mashhur bo'lgan serial qahramoni Oshinga o'xshatishadi, - deydi X.Boboqulova. - Ammo hayotim unikidan ham og'irroq kechgan. Boshimdan ko'p azob-uqubatlarni kechirdim. Taqdir taqozosi bilan turmush o'rtog'im bilan ajrashdim. 6 farzand bilan yolg'iz qoldim. Ammo o'zimda kuch topib, hayot qiyinchiliklarini yengishga harakat qildim. Tadbirkorligimni qora qozonchada baliq pishirib sotishdan boshladim. Farzandlarim yordamida faoliyatimni kengaytirib bordim.

Tadbirkor bundan 10 yil ilgari Kattaqo'rg'on suv ombori bo'yida bir tashlandiq joyini obod qilib, dam olish maskani tashkil etishni ko'ngliga tuktgandi.

- Bu yerda qarovsiz yotgan joyni chiqindilardan tozalab, daraxt va tok ko'chatlarini o'tqazdim, - deydi u. - Bugun ular hosilga kirib, chiroyli bog' bo'ldi. Tashkil etgan dam olish maskanimizga mam-lakatimizning turli hududlaridan, hatto horijdan ham sayyohlar kelib turadi. Ularning maroqli dam olishlari uchun sharoit yaratilgan.

Onaxon halol mehnati evaziga uylar qurdi, to'ylar qildi. Ahamiyatlisi, u pensiya yoshida avtomobil boshqarishni o'rgandi. Bugun Oshin onaning shaxsiy mashinasi ham bor.

**O'tkir USMONOV,**  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## Xotinini tahqirlagan jinoyi javobgarlikka tortilishi mumkin

**Oila – bu ayol va erkakning teng huquqliligi asosida quriladigan, farzandlar kamol topadigan muqaddas maskan. Oilaning muqaddasligi avvalo, Bosh qomus - Konstitutsiyamizda belgilangan bo'lsa, uning huquqiy asoslari Oila kodeksida mustahkamlangan. Bundan tashqari, oila, xususan, ayol va voyaga yetmaganlarning huquqlari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari orqali ham himoya qilinadi.**

Aytish joizki, mam-lakatimizda ayollarning nafaqat jamiyatda, balki oiladagi mavqeiini oshirish, ularni turmushdagi zo'ravonlik va tazyiqlardan himoya qilish masalasi ham e'tiborda. Ayni maqsadda Jinoyat kodeksiga 1261-modda, ya'ni "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" deb nomlanuvchi modda kiritildi.

Unga ko'ra, endi xotinini (eri), sobiq xotinini (sobiq eri), bir ro'zg'or asosida bir-galikda yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsning huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulki va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, shuningdek, sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, do'pposlash,



badanga yengil shikast yetkazish, shunday harakatlarni uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoyi javobgarlikka sabab bo'ladi. Qonunchilikdagi ushbu o'zgarish fuqarolarning nafaqat jamiyatdagi, balki oiladagi haq-huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

**F.SAMATOV,**  
jinoyat ishlari bo'yicha Nurobod tumani sudi raisi.

**Shu paytgacha professional ta'lim muassasalari, ya'ni kasb-hunar maktablari, kollej va texnikum o'qituvchilariga kam maosh to'lanar edi. Prezidentning 2023-yil 28-fevraldagi "2023-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga asosan, professional ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning yangi tizimini joriy etish belgilandi. Unga ko'ra, professional ta'lim muassasalari pedagoglarining bazaviy tarif stavkalarini mos ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladigan bo'ldi.**

## Professional ta'lim muassasalari pedagoglari qancha maosh oladi?

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-martdagi "Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoniga asosan, professional ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqlari oshirildi. O'rtacha kontingentdagi ta'lim dargohining direktoriga o'tgan yili 1-iyundan oshirilgan ish haqi miqdori bilan 3891845 so'm maosh to'lanib kelingan bo'lsa, endi 4162474 so'm maosh oladi. Direktor o'rinbosarining ish haqi 3667116 so'mdan 3923814 so'mga oshirildi.

Shuningdek, bir stavkada dars beradigan bosh o'qituvchiga 2779893 so'm maosh to'langan bo'lsa, oshirilgan ish haqi miqdori bilan 3798941 so'm, oliy ma'lumotli o'qituvchi 2755648 so'm, o'rta maxsus ma'lumotli pedagog 2575884 so'm maosh oladi.



Bundan tashqari, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagoglarga, til bilish darajasi bo'yicha xalqaro sertifikatga ega chet tili o'qituvchilariga qo'shimcha ustamalar ham beriladi.

**Sheroz USMANOV,**  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining viloyat hududiy boshqarmasi bosh hisobchisi.



# Dorini faqat sotish emas, ishlab chiqarish, saqlashni ham bilish kerak

Bugun Samarqand davlat tibbiyot universitetining farmatsiya fakultetida ana shunday ko'nikmalarga ega yosh mutaxassislar tayyorlanmoqda. Farmakologiya, klinik farmakologiya, farmakognosiya va farmatsevtik texnologiya, biologik va tibbiy kimyo, toksikologik kimyo singari kafedralarni umumlashtirgan ta'lim yo'nalishini joriy o'quv yilida 136 nafar talaba tamomlaydi.



Aytish joizki, farmatsiya dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar olib borish, ularni ishlab chiqarish, sifatini nazorat qilish, saqlash va sotish singari muhim vazifalarni o'z ichiga olgan ilmiy-amaliy faoliyatdir. Fakultet ilmiy-pedagogik jamoasi sohaga kirib kelayotgan yosh kadrlarni o'qitish barobarida yuqorida tilga olingan ilmiy faoliyat turlari bilan ham shug'ullanib, tadqiqotlar olib borishadi.

Tashkil etilganiga hali uncha ko'p bo'lgan fakultet faoliyatini tizimli takomillashtirish masalasi ham e'tibordan chetda qolgan yo'q. Xususan, 2022-yilda SamDTU rektori Jasur Rizayev tashabbusi bilan fakultet qoshida yana bir yo'nalish, farmatsevtika ishini tashkil etish kafedrasini tashkil etildi. Ayni paytda undagi 9 nafar o'qituvchi kafedra mudiri Nigina Bozurova boshchiligidagi ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib kelmoqda. Yangi kafedra farmatsevtika ishini tashkil qilish, farmatsevtik boshqaruv, farmatsevtika iqtisodiyoti, farmatsevtik bioteknika, farmatsevtika sanoati singari mutaxassislik uchun muhim sanalagan fanlarni o'zida jamlab, ta'lim va amaliyotni o'zaro integratsiya qilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

**Islom SHAMATOV,**  
**Mavsuma OLTIBOYEVA,**  
**Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasining assistentlari.**

## 20 ming tadbirkorga 500 ming mutaxassis

**Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organi va tashkilot mansabdori yoki xizmatchisi tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, g'ayriqonuniy aralashish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbuli oldindan ayon bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirishi qonun bilan ta'qiqlanadi. Shunday harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilangan.**

Shuningdek, Mehnat kodeksining 5-moddasida ham "xodimni va ish beruvchini mehnat shartnomasini tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilangan. Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish va uzaytirish borasida barcha sharoitlarni yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz raisligida joriy yilning 15-may kuni kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash ishlarini yangi pog'onaga olib chiqish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida fuqarolar

bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga munosib hissa qo'shgan tadbirkorlik subyektlariga yangi imtiyozlar berilishi belgilandi.

Xususan, joriy yilning 1-iyunidan "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi amalga oshiriladi va dasturga 2023-2024-yillarda jami 1 milliard dollar ajratilishi nazarda tutilgan.

Bu mablag'lar hisobidan birinchi navbatda kambag'al oilalar a'zolari kasbga o'qitilib, ishli qilish bo'yicha loyiha ahamiyatiga qarab, ularga amaldagidan past foizlarda va uzoqroq muddatga kredit beriladi.

Ikkinchidan, tadbirkorning

"amaliy monomarkaz" tashkil qilish va jihozlash hamda kasbga o'qitish xarajatlari to'liq qoplab beriladi.

Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga soliqlardan alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, kamida 20 foiz kambag'al oila a'zosini bir yil davomida ish bilan ta'minlash, mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilinadi;

- kambag'al oila a'zosi daromad solig'idan ozod qilinadi;

- 5 million so'mgacha ish haqi to'layotgan tadbirkorga ijtimoiy soliq stavkasi 2 baravarga kamaytiriladi.

Uchinchidan, dasturda qatnashadigan tadbirkorlar soliq va bojxonaga ma'murchiligidagi yengilliklar oladi. Xususan, ular faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi;

- ularga qo'shilgan qiymat solig'i, shuningdek, ortiqcha to'langan soliq tekshiruvsiz qaytarib beriladi;

- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha guvohnoma mud-

datidan ilgari bekor qilinmaydi;

- barcha soliqlardan qarzdorlikni bir yilgacha kechiktirib to'lash imkoni beriladi;

- bojxonaga to'lovlarini sug'urta kafolatsiz olti oyga bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Shuningdek, dasturda ishtirok etayotgan tadbirkorlarga bojxonaga rasmiylashtiruv paytida "yashil yo'lak" tartibi qo'llaniladi.

To'rtinchidan, dasturga kirgan tadbirkorlarga infratuzilma, yer va bino-inshootlar bilan ta'minlashda qo'shimcha yengilliklar beriladi;

- yer, bino-inshootlarni avksion orqali xususiy lashtirishda bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi;

- qiymati 50 milliard so'mdan yuqori loyihalar bo'yicha infratuzilma xarajatlari to'liq qoplab beriladi.

Tadbirkorlik subyektlariga yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik ham belgilangan.

**Egamberdi RO'ZIYEV,**  
**Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.**

O'tgan asr oxirida jahonda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan olamshumul voqealar yuz berdi. Asoslari abadiy mustahkam deya hisoblangan kommunistik imperiya parchalanib, o'rnida o'n beshta yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi. Varshava harbiy-siyosiy shartnomasi atrofida birlashgan xalqaro sotsialistik lager parokandalikka yuz tutdi.

## MAYDALASHMASDAN, UMUMINSONIY QADRIYATLARGA SUYANISH PAYTI KELDI

Berlin devori qulab, G'arbiy va Sharqiy Germaniya birlashdi. Qizig'i shundaki, Buyuk Britaniya bosh vaziri Margaret Tetcher bu birlashuvni yoqlab chiqmadi. Nega desangiz, dono siyosatchi ayol 1975-yildagi Xelsinki shartnomalari asosida shakllangan Yevropa xaritasiga kiritilayotgan tuzatishlar oxir-oqibat yaxshilikka olib bormasligini oldindan ko'ra bilgandi. Natija o'zini uzoq kuttirmadi: Yugoslaviyada fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Chexoslovakiya ikkiga bo'ldi. Shu joyda nega SSSRning tarqalishi nisbatan tinch vaziyatda yuz berdi-yu, qolgan joylarda qarovolli mojalar chiqdi, degan o'rinni savol paydo bo'ladi. Fikrimizcha, buning sababi, ittifoqning yemirilishiga millatchilik emas, balki sof siyosiy-iqtisodiy omillar sabab bo'ldi. Qolgan holatlarda esa bo'linish milliy-etnik ziddiyatlar asosida boshlandi.

Buning yana bir omili shundaki, SSSRning tarqalish davrida millatchilik unchalik gazak olmagan. Vaqt o'tishi bilan u rivojlanib, hozirgi ayanchli darajasiga yetib keldi. Bugun butun dunyoda irqchilik, millatchilik va diniy ayirmachilikka moyillik kuzatilmoqda. Hatto, AQSH-dek yirik demokratik mamlakatda ham irqchi-millatchi siyosatchilarning davlat tepasiga kelishi yoki bo'lmasa, Yevropada, Rossiyada qora millatlarga nisbatan nafrat kuchaya borayotganligi buning yorqin dalildir. Hatto, Afrikadagi tutsi qabilasining qirg'in qilinishiga ham sabab ularning boshqa tilda so'zlashgan edi. Birma-Myanmadagi musulmonlar esa diniy asosda zug'umga uchrarmoqda. Aytish mumkinki, millatchilik balosi jahon xalqlarini asta-sekin o'z domiga tortib bormoqda. Ajablanarlisi, ushbu illatning uyg'onib, ildiz otishiga oq-qorani tanigan ziyolilar: faylasuflar, olimlar, shoirlar va yozuvchilar ham sabab bo'lmoqda.

Menimcha, ziyolilar mayda gaplarga o'rinalashmasdan, umuminsoniy qadriyatlarga suyanishlari joiz. Aytaylik, bugun davom etayotgan rus-ukrain urushining kelib chiqishiga ham sof millatchilik omillari sabab bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bir tomondan ukrainalik millatparvarlarning rus shovinistlari zug'umidan qutulishga bo'lgan urinishlari rus millatchiligi bilan ziddiyatga kirishib, oqibatda katta urush chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Masalan, Amerikada Trampning, Rossiyada Putinning hokimiyat tepasiga kelib qolishi ham ana shu kayfiyatlar asosida yuz berdi. Bugun jahon bo'ylab liberal-demokratik qadriyatlar mavqei tushib, irqchi-millatchi kuchlar bosh ko'tarayotganligi katta sir bo'lmay qoldi. Hatto, kichik millatlar ham o'zini aslzoda deya e'lon qilib, o'tmishi bilan maqtanishi oddiy holatga aylandi.

Jumladan, Mo'g'ulistonida Chingizxonaga maqbara qurilib, ulkan haykal tiklandi. Mo'g'uliston buyuk Chingizxon imperiyasining vorisi deya e'lon qilindi. Holbuki, uning hozirgi mongol millatiga naqadar mansubligi ilmiy jihatdan oxirigacha o'rganilmagan.

Bugungi global dunyoning kelajagi millatchi vatanparvarlik mafkurasi asosida shakllanayotgan xudbinlik mafkurasi emas, balki millat va dinga ajratmasdan, xalqlar inoqligi va o'zaro hamkorlikda yashash ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Shu ma'noda, bu borada demokratik O'zbekiston yuritayotgan ko'p vektorli hamkorlik va hamjihatlik siyosati jahon mamlakatlariga chinakam o'rnatilmoqda. Bunda har bir davlatning o'z xalqi manfaatlarini yo'lida jahon mamlakatlari bilan yaqin aloqaga kirishib, hamkorlik qilishi eng to'g'ri yo'ldir.

**Xudoyberdi KOMILOV,**  
**siyosiy sharhlovchi.**

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## Adilaga MIRZOYEV

Ozarbayjon milliy-madaniy markazi Samarqand viloyati bo'limi raisi, fidoyi inson Adilaga Mirzoyev 71 yoshida vafot etdi.

A. Mirzoyev 1952-yilda Ozarbayjon Respublikasining Jalilobod tumanida tug'ildi. O'rta maktabni tugatib, biroz xo'jalikda ishlagach, harbiy xizmatga chaqirildi.

Ilk mehnat faoliyatini 1974-yilda suvda suzib yuruvchi "Uragan" ilmiy-tadqiqot stansiyasida boshladi. 1976-yildan uning hayoti O'zbekiston bilan bog'landi. Dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasi meteostansiyasiga, 1979-yildan esa Tuya-mo'yin meteostansiyasiga rahbarlik qildi. Bu orada Toshkent davlat universitetini bitirdi. 1986-yilda uning mazkur sohada yetuk mutaxassisligi hamda tashkilotchiligi inobatga olinib, viloyat gidrometeorologiya boshqarmasi boshlig'i vazifasiga

tayinlandi. Uning rahbarligi ostida boshqarmaning moddiy-texnika bazasi yangilanib, tajribali mutaxassislar bilan to'ldirildi. Zamonaviy asbob-uskunalar o'rnatilgach, har qanday ob-havo o'zgarishini bir hafta ilgari aniqlash imkoniyatlari paydo bo'ldi.

A. Mirzoyev bir necha yil Samarqand davlat universiteti geografiya fakultetida talabalarga iqlimshunoslik fanidan saboq berdi.

U viloyatdagi ozar millati vakillari boshini birlashtirib, milliy urf-odatlari, madaniyatini saqlab qolishga intildi. U har doim "O'zbekistonda yashagan ozarbayjon bo'lganim bilan faxrlanam", der edi.

Adilaga 2011-yildan buyon Ozarbayjon milliy madaniy markazi viloyat bo'limiga rahbarlik qildi. Uning rahbarligida "Ozarbayjon yoshlari" ashula va raqs dastasi yurtimizda o'tkazilayotgan bayram tadbirlarida,



festivallarda faol ishtirok etib keldi. Shuningdek, u Samarqandda yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari qadriyatlarini asrab-avaylash, urf-odat va an'analari bardavomligini ta'minlash, yosh avlodni millatlararo bag'rikenlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shdi. Butun hayotini sevgan kasbga, jamoat ishlariga bag'ishlagan Adilaga Mirzoyevning xizmatlari respublika, viloyat rahbarlari tomonidan munosib e'tirof etilgan.

A. Mirzoyevning xotirasi qalbmizda yashaydi. Uning oila a'zolari, yaqinlariga ta'ziya izhor etamiz.

**SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI.**

## "NURLI-ZAMIN ESM"

SIHATGOHI SIZNI CHORLAYDI!

**Nurobod shaharchasida joylashgan "NURLI-ZAMIN ESM" sihatgohi radonli va ma'danli suv bilan davolaydi. Sihatgohda asab tizimi, yurak qon-tomir, harakat-tayanch, teri kasalliklari bilan xastalangan dam oluvchilar sog'lomlashtiriladi.**

Bundan tashqari, maskanda fizioterapiya, parafin-ozokerit, radonli vanna, qadimiyy tibbiy davolash uslubi, toshli issiq yo'lakcha, yog'och bochkada asal surib davolash, badantariya, uqalash, g'iyohlardan tayyorlangan damlamalar, parhez ovqatlanish yo'lga qo'yilgan. Yotoqxonaga, raqs va sport maydonchalariga dam oluvchilar xizmatida.

Sihatgoh rahbari Salohiddin Ergashev, oliy toifali vrach-kardiolog Mamat Norqulov, o'z ishining ustalari hamshira Muxlisa va massajchi Islomjonlarning xizmatidan hamma xursand.

**Radonli suv sog'lom hayot manbaidir. Sizlarni "NURLI-ZAMIN ESM" sihatgohida kutamiz. Murojaat uchun telefonlar: (90) 470-76-06, (95) 500-76-06, (93) 720-76-06.**

Xizmatlar litsenziyalangan.



**DA'VOLAR BO'LSA...**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Eshbekov Atakul Eraliyevichga (2019-yil 18-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Maxmudov Aslanqul (2015-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ergashev Aminjon Urunovichga (2021-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravonova notarial idorasida marhum Gofarov Mustafaga (2020-yil 9-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xis-

ravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Shomirzaev G'ulomjon Shodmonqulovichga (2021-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri No-dirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Yarashyev Nurulla Narkulovichga (2012-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-

mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Payariq tumanidagi "OFDEB - ZAY" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306415024) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolgani sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Davronbek Jumaniyazovga otasi  
**Husainboy JUMANIYAZOV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.




# Qur'oni karimning eng kichik nusxalaridan biri

O'qing, qiziq

Samarqandda saqlanyapti

**Dunyodagi eng katta Qur'on kitoblaridan biri Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyalarida namoyish etib kelinayotgani ko'pchilikka ma'lum. Ammo eng kichik hajmdagi Qur'on kitobi nusxalaridan biri ham Samarqand muzeyida saqlanayotganini bilarmidingiz?**



Muqaddas kitobimizning eng katta va eng kichik hajmdagi nusxalari mavjud bo'lib, ular dunyoning turli davlatlarida saqlanadi. Dunyodagi eng katta hajmdagi Qur'on kitoblaridan biri 1854-1855-yillarda Buxoro hukmdori Amir Nasrulloh buyrug'i bilan samarqandlik kotib Mullo Hasan Samarqandiy tomonidan sulx xatida Samarqand qog'oziga ko'chirilgan. Bu nusxa 1939-yilda Samarqand viloyati muzeyiga topshirilgan.

Qur'oni karimning eng kichik, noyob nusxasi esa 1943-yilda muzey fondidan o'rin olgan. Qo'lyozmalar fondidagi bu kitob XIX asrda arab tilida nasta'liq xatida, toshbosma usulida chop etilgan. Hajm jihatidan juda kichikligi sababli kitobni faqat lupa yordamida o'qish mumkin. Ushbu kitobning kattaligi 2,9x2,1 santimetr o'lchamda.

Samarqand muzey-qo'riqxonasi ekspozitsiyalarida namoyish etib kelinayot-

gan Qur'on kitobining mazkur nusxasi noyobligi va kichikligi inobatga olingan holda metaldan yasalgan jildida saqlanadi. Dastlab kitobning silliq yuzasidagi harflarga tilla suvi yugurtirilgan va undagi bu kabi bezatilish ishlari sezilarli darajada ko'zga tashlanib turgan. Vaqt o'tib, tilla suvi o'chib, bugungi kunga kelib, deyarli bilinmaydi. Kitob solingan metall jild markazida binafsharang katta ko'zi bor, atroflarida esa 4 ta pushti rang ko'zdan iborat bezaklar bilan bezatilgan. Kitobning metall jildi qozon tatar ustalari tomonidan yasalgan.

Kitob sahifalaridagi yozuvlar katta shakldagi Qur'on kitoblaridagi yozuvlar bilan bir xil. Kitobning kichik hajmdagi nusxasi mu-taxassislar tomonidan tekshirilgan va ular haqiqiy Qur'on kitobi sifatida e'tirof etilgan.

**Navbahor DALIYEVA, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi.**



**BIRINCHI UYALI TELEFONDAN 50 YIL OLDIN GAPLASHILGAN**

"Bu birinchi portativ uyali telefon", deydi Marti Kuper qo'lidagi g'ishtdek keladigan apparatni ko'rsatar ekan. 94 yoshli amerikalik muhandisni "mobil telefonlar otasi", deb atashadi.

Kuper birinchi uyali telefon qo'ng'irog'ini 1973-yil 3-aprelda amalga oshirgan. U qurilmani "Motorola"dagi hamkasblari jamoasi bilan ishlab chiqdi va "Bell System" kompaniyasidagi raqibi Nyu-yorklik Joelu Engelga qo'ng'iroq qilishga qaror qildi.

"Joel, bu Martin Kuper. Salom, Martin. Joel, men siz bilan uyali telefonda gaplashayman. Bu haqiqiy uyali telefon: maxsus, ko'chma, dastaki". O'ylaymanki, aloqaning narigi tomonida uning tishlarini g'ijirlatishdan boshqa chorasi qolmagan edi", deb eslaydi Kuper.

Ammo birinchi mobil telefon bozorga chiqishi uchun yana 10 yil kerak bo'ldi. 1983-yilda chiqarilgan "Motorola DynaTAC 8000X" 4000 dollar turardi. Martin Kuper bugungi kunda odamlar uning ixtirosiga mukkasidan ketgan deb bilsa-da, ammo kelajakka ishonadi:

"Kimdir ko'chadan o'tayotib, uyali telefoniga qaraganini ko'rsam, ezilaman. Bu juda tez-tez uchraydigan hodisa, ular aqldan ozgan. Lekin insoniyatga ishonish kerak va men ishonaman. Ertami-kechmi odamlar ham narsani tushunadi".

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil oxiriga kelib, 10 yoshdan oshgan aholining to'rtidan uch qismi mobil telefonga ega.

## UZOQ UMR KO'RUVCHILARNING NOYOB IMMUN TIZIMI O'RGANILDI

Boston universiteti tibbiyot fakulteti va Taftsa tibbiyot markazi olimlari uzoq umr ko'ruvchilarning noyob immun hujayralari turlarini o'rganishdi. Ular 100 yoshdan oshganlarda immunitet tizimining o'ziga xos mexanizmlarini topishdi.

Ma'lumki, qarishning sabablaridan biri immunitet tizimining degradatsiyasidir. Uzoq umr ko'ruvchilarda bu jarayonlar sekinroq sodir bo'ladi, bu ularning immunitet tizimining chidamliligini ko'rsatadi. Olimlar bunday odamlarda qaysi immun hujayralari faol ekanligini ko'rib chiqishga qaror qilishdi.

Gator tadqiqotlardan keyin guruh ko'p yashovchilar kuchli immun javobini hosil qiluvchi hujayralarning noyob tarkibiga ega degan xulosaga kelishdi. Aynan ana shu himoya omillari ularning immun tizimi infeksiyalariga moslashishi va tezda tiklanishiga imkon beradi.

Tabiiyki, yosh o'tishi bilan ushbu qobiliyat sustlashadi, ammo jarayon an'anaviy tur immun hujayralarini tashuvchilarga qaraganda umri uzoqlarda sekinroq ro'y beradi. Ish xulosalari oldingi ixtirolar bilan muvofiqlashtirilib, yangi ma'lumotlar qarishni sekinlashtirish uchun zarur mexanizmlar haqida g'oyalar yaratishga yordam beradi, deyishadi olimlar.

Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.

Samarqandlik baynalmilal jangchilar, profilaktika inspektorlari, sog'liqni saqlash faxriylari va hamshiralardan iborat guruh Xorazm viloyatida 3 kunlik sayyohlik safarida bo'ldi.

## Tarixni o'rganib, maroqli hordiq chiqarishdi

- Bu birinchi sayohat emas, - deydi O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi madaniyat va sport ishlari bo'limi yetakchi mutaxassisi Mahliyo Razzoqova. - Mehnatkashlar va mehnat faxriylarining mazmunli hordiq chiqarishlarini ta'minlash, bu borada ichki turizm imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Xorazm va Toshkent viloyatlariga 3 kunlik sayyohlik sayohatlari tashkil qilib kelinmoqda. Shunisi quvonarliki, sayohatning barcha ishtirokchilari tashkilotchilar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatning sifati va e'tiborning yuqori ekanligini bildirishdi.



- Ushbu sayohat baynalmilal jangchilarning uchinchi safari bo'ldi, - deydi guruh rahbari Xaliljon Ibragimov. - Har gal ona yurtimiz go'zalligidan bahramand bo'lishni istagan, uning tarixini o'rganishga qiziquvchi xizmatdoshlarimizdan iborat 20 kishilik guruh tuziladi. Turistik sayohat tashkilotchilarining o'z kasbining ustalari ekanligi safarimiz ko'ngildagidek o'tishida muhim omil bo'lyapti. Sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularga ko'rsatilayotgan e'tibor sifati yaxshilanib borayotganini alohida qayd etish mumkin.

Bunday turlarni tashkil qilayotgan Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashiga xizmatdoshlarim, baynalmilal jangchilar nomidan minnatdorlik bildiraman. "Urganch-Palace" mehnatxonasi xodimlari va gidlarga qiziqarli sayohat va mazmunli dam olishimiz uchun qilgan mehnatlariga rahmat.

- Taassurotlar ko'p, - deydi viloyat IIB profilaktika inspektorlari guruhi rahbari Dilmurod Nozobekov. - Sayohat yakunida o'zbek xalqining milliy qahramoni Jaloliddin Manguberding mahobatli haykali oldida katta hayajon bilan suratga tushdik. So'nggi qo'ng'iroq tadbirlari bois istirohat bog'iga gul va sharlilar kelgan maktab bitiruvchilari kayfiyatimiz yanada ko'tarinki bo'lishini ta'minladi.

**Fozil ABDURAUPOV, mehnat faxriysi.**

## Hajviy asar yozishning o'zgacha mas'uliyati bor

Hayotdagi kulgili voqealarni topib, uni bironing shaxsiyatiga tegmaydigan qilib badiiy tasvirlash kishidan zakiylik talab qiladi. Taniqli publitsist Tog'aymurod Shomurodovning hajviy hikoyalari ana shunday zakiylik va ijtimoiy yuk sezilib turadi.

Kitobxonlarga "Zamin farzandi", "Osmon qulagan kun", "Jonning huzuri" nomli badiiy-publitsistik va hajviy kitoblari bilan tanilgan, uzoq yillar matbuotda faoliyat yuritib, yuzlab yoshlarga kasb sirlarini o'rgatgan, bugun keksalik gashini surayotgan ustoz ijodkor bir zum ham ijoddan to'xtagan yo'q. Faxriy jurnalistning yaqinda yana bir hajviy kitobi - "Kechikkan uzr" nashrdan chiqdi.

Kitobdan o'rin olgan ixcham hikoyalar zo'rma-zo'rakilikdan xoli, sodd va samimiy, qahramonlari esa siz biz kundalik hayotimizda duch keladigan oddiy odamlar, tanish chehralar. Ba'zan esa hayot sinovlarida toblangan qahramonlar taqdiri sizni chuqur mushohadaga chorlaydi, atro-fimizdagi kishilar, biz uchun

qadri narsalarni avaylab-as-rashga da'vat etadi. Kitobdan o'rin olgan "Tut" nomli hikoyada ana shunday kechin-malarni his qilasiz. Shodmon bobo hovli o'rtasidagi tutni kesmoqchi bo'lgan o'g'lini bu ishdan qaytarar ekan, bu tut urush yillarida qancha insonlarni ochlikdan saqlab, hayotini qutqarib qolganini ta'sirchan hikoya qiladi.

Aytish mumkinki, ijodkorning hajvlari shunchaki kulgi uchun yozilmagan. Har bir asarining, hatto bir-ikki satrdan iborat ikir-fikrlarining ham ijtimoiy yuki bor. O'quvchi kuladi, jiddiy tortadi, uning ko'nglida qalamga olingan illat yo qusurga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bu asarlar o'quvchilarni ruhan poklanishga, jamiyatning tozarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## Yangi kitoblar



**Payg'ambarlar axloqi insoniyat uchun namuna va ma'rifat maktabi, ular haqida muqaddas kitoblarimizda keltirilgan tarixiy qissalar ibrat manbaidir.**

## "Payg'ambarlar tarixidan saboqlar"

Yaqinda ijodkor Muhsin G'aniyevning Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida nashrga tayyorlangan "Payg'ambarlar tarixidan saboqlar" nomli kitobi ayni shu jihatlar bilan kitobxonlarga manzur bo'ldi.

Kitobda payg'ambarlar, ularning hayoti va shaxsiyati, fazilatlar, payg'ambarlar haqidagi manbalarga tayangan holda hikoya qilinadi. Muallifning ushbu voqealarni Qur'oni karim va hadis sharif ko'rsatmalaridan namunalar asosida bayon qilishi o'quvchini o'ziga jalb etadi. Uzoq tarixda bo'lib o'tgan voqealar qisqa va tushunarli uslubda yozilgan. Kitobda insoniy odob-axloq, go'zal fazilat va xislatlar nozik kuzatish va hayotiy tajribalar asosida tahlil qilingan.

Ushbu kitob jamiyatimizning barcha qatlamlari, yoshlar va kattalar - keng kitobxonlar ommasining madaniy va ma'naviy dunyoqarashini yanada kengaytirishlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**S.MARDIYEV.**

## Biz ham qarab turmasdik...

**Biz, keksalar hayotning baland-pasti, oq-qorasi, yaxshi-yomonini ko'rganmiz. Shu sababli yoshlarimizni to'g'ri yo'lga boshlashni istaymiz, hayotda qoqilmasin, deymiz.**

Bugun ba'zi ota-onalar farzand tarbiyasiga qiynalyapti. Ayrim yoshlar teng-qurlariga, "o'rgimchak to'ri"ga berilib, ota-onasiga quloq solmayapti, bilib-bilmay huquqbuzarliklar sodir etyapti. Shu bois bugungi axborot asrida yoshlarga hali esini tanimasidan to'g'ri ta'lim-tarbiya berish kerak. Buning uchun maktablarda keksalar va o'quvchilar o'rtasida davra suhbatlari tashkil etilishi, bolalar hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlarning suhbatlarini olishi lozim.

Xalqimiz bejiz "Bir bolaga yetti



mahalla ota-ona", degan naqlni keltirmagan. Bolaligimizda ko'cha-ko'yda sho'xlik qilsak, bizga kattalar nasihat qilardi, tanbeh berardi. Endi qo'shning bolalarni tartibga chaqirsangiz ham baloga qolasiz. Maktablarda yoshi ulug'lar bilan tez-tez uchrashuvlar tashkil qilinsa, biz keksalar qarab turmasdik.

**Turdi TURSUNOV, mehnat faxriysi.**

## Xanda

**O'qituvchi talabdan so'radi:**

— Xo'sh, Muqimiyning murabbalari haqida nima bilasiz?

**Talaba:**

— Domlajon, men Muqimiyning she'r yozishini bilardim, ammo murabbo tayyorlovchi qandolatchi bo'lganini birinchi mar-ta eshitib turibman...

**J.MAJIDOV, Oqdaryo tumani.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**3-IYUN**  
**Emmanuel KALANTAROV** - (1932-1984) Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq rassomi.  
**Bozorboy O'RINBOYEV** - (1936-2014) Jomboy tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

**5-IYUN**  
**Hamroqul RAFIYEV** - 1939-yilda Samar-

qand shahrida tug'ilgan. Yengil atletikaning bosqon uloqtirish turi bo'yicha O'zbekiston va xalqaro sport musobaqalari g'olibi va sovrindori. Pedagogika fanlari nomzodi, professor. Samarqand viloyati sport faxriylari kengashi raisi.

**7-IYUN**  
**Abdurahim SOLIYEV** - (1939-2021) Forish tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, shoir.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 558 nusxada chop etildi. Buyurtma 301. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**X.ERNAZAROVA.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

